

**“SUN’IY INTELLEKTNI DAVLAT BOSHQARUVIGA TA’SIRI”****Mustafoqulova Aziza Baratjon qizi**

Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti

Xalqaro huquq fakulteti 1- bosqich talabasi

e-mail: azizamustafoqulova65@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqola sun’iy intellektning (SI) ijtimoiy va siyosiy boshqaruvdagi ahamiyati va ta’sirini chuqur tahlil qiladi. SI davlat xizmatlarining samaradorligini oshirish, qaror qabul qilish jarayonlarini tezlashtirish, resurslardan oqilona foydalanish va shaffoflikni ta’minlashda muhim vosita sifatida ishlatilayotganini xalqaro tajribalarda ko’rishimiz mumkin. Maqolada sun’iy intellektning siyosiy boshqaruvdagi roli, fuqarolar bilan o‘zaro aloqalari, ijtimoiy xavfsizlik haqida batafsil yoritilgan. Shuningdek, maqolada turli mamlakatlarda SI ning davlat boshqaruvida qo‘llanilishi va amaliy tajribalarining samaradorligi tahlil qilinadi. Mualliflar adabiyot tahlillari va metodologiya orqali jamiyat hayotiga ta’sirini ko‘rsatadigan misollar orqali SI ning strategik ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar: sun’iy intellekt, davlat boshqaruvi, siyosiy boshqaruv, davlat organlari, davlat xizmatlari, xavfsizlik.

Аннотация: В данной статье подробно анализируется влияние искусственного интеллекта (ИИ) на социальное и политическое управление. ИИ выступает как важный инструмент повышения эффективности государственных служб, ускорения процессов принятия решений, рационального использования ресурсов и обеспечения прозрачности. В статье рассматриваются роль ИИ в политическом управлении, взаимодействие с гражданами, обеспечение социальной безопасности и возможности борьбы с коррупцией. Кроме того, анализируются практические примеры применения ИИ в различных странах и эффективность таких технологий. Авторы используют эмпирические данные, обзор литературы и примеры цифровых технологий, чтобы продемонстрировать стратегическую значимость ИИ для общества.

Ключевые слова: искусственный интеллект, государственное управление, государственные органы, социальное управление, прозрачность, безопасность, государственные услуги.

Abstract: This article provides a comprehensive analysis of the impact of artificial intelligence (AI) on social and political governance. AI serves as a crucial tool for enhancing the efficiency of public services, accelerating decision-making processes, optimizing resource use, and ensuring transparency. The study examines AI’s role in political governance, citizen engagement, social security, and anti-corruption measures. Moreover, it analyzes practical applications of AI in various countries and evaluates the effectiveness of such technologies. The authors use empirical data,

literature review, and examples of digital technologies to highlight the strategic significance of AI in shaping modern governance and societal development.

Keywords: artificial intelligence, public governance, political governance, government bodies, transparency, security, public services.

Kirish

XXI asrda texnologik taraqqiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri bo'lgan su'niy intellekt to'rtinchi sanoat inqilobining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Ushbu texnologiyaning tez sur'atlarda rivojlanishi va hayotning deyarli barcha jabhalarda amaliy qo'llanilayotgani uni, nafaqat, texnik yoki iqtisodiy balki, huquqiy sohada ham chuqur tahlil qilishni zaruratga aylantirmoqda. Su'niy intellekt bilan bog'liq ijtimoiy munosabatlarni tartibga solish masalasi ayniqsa murakkabdir. Mutaxassislar va Siyosatshunoslar ushbu texnologiyaning qaysi jabhalariga huquqiy mexanizmlar tatbiq etilishi lozimligi borasida turlicha yondashuvga ega. Natijada, dunyo mamlakatlarida su'niy intellekt bilan bog'liq yondashuvlar, tartibga solish mezonlari va huquqiy infratuzilmalari keskin farqlanmoqda. Bu esa global miqyosda umumiy yondashuv ishlab chiqish ehtiyojini yuzaga keltirmoqda.

Adabiyotlar SI ning davlat boshqaruvi va ijtimoiy boshqaruvdagi ahamiyatini keng yoritadi. SI ning qaror qabul qilish jarayonini optimallashtirish va shaffoflikni oshirishdagi rolini ta'kidlaydi. SI texnologiyalari davlat xizmatlari samaradorligini oshirish, ma'lumotlarni tahlil qilish va avtomatlashtirilgan qaror qabul qilish jarayonida qanday qo'llanilishini o'rganadi. SI ning ijtimoiy xavfsizlik, fuqarolar bilan interaktiv xizmatlar va shikoyatlarni avtomatlashtirilgan tarzda qayta ishlashdagi afzalliklarini ko'rsatadi. Davlat xizmatlarini raqamlashtirish va AI orqali korrupsiyaga qarshi kurashdagi misollarni taqdim etadi. Mamlakatlar tajribasi: Albaniya (2025) – Diella AI vaziri orqali tenderlar va davlat xaridlarida shaffoflikni oshirish; Adabiyot sharhi SI ning davlat boshqaruvidagi ahamiyatini, samaradorlik va shaffoflikni oshirishdagi imkoniyatlarini tasdiqlaydi. Shu bilan birga, empirik tadqiqotlar orqali amaliy misollar va strategik tavsiyalar ishlab chiqish imkonini beradi.

Metodologiya

Ushbu tadqiqotda sifat va miqdoriy tadqiqot usullari kombinatsiyasi qo'llanilgan. Adabiyot tahlili: So'nggi yillarda nashr etilgan ilmiy maqolalar, hukumat hisobotlari va xalqaro tashkilotlar materiallari o'rganildi. Bu orqali SI ning siyosiy qaror qabul qilish, fuqarolarga xizmat ko'rsatish va ijtimoiy boshqaruvdagi samaradorligi tahlil qilindi. Turli mamlakatlar, jumladan, Albaniya (Diella AI Ispaniya (AESIA) SI ning davlat boshqaruvida qo'llanilishi o'rganildi. Ushbu tizimlar tenderlarni nazorat qilish, xavfsizlik va fuqarolarga xizmat ko'rsatish kabi sohalarda ishlatiladi. 3. Kuzatuv va solishtirish: SI ning siyosiy va ijtimoiy boshqaruvga ta'siri an'anaviy boshqaruv tizimlari bilan solishtirildi. Shuningdek, shaffoflik, korrupsiyaga qarshi kurash va qaror qabul qilish tezligi kabi mezonlar asosida baholandi.



Natijalar

Sun'iy intellekt tushunchasiga oydinlik kiritsak (inglizcha :artificial intelligence ,AI) – inson intellektiga taqlid qilishga qodir bo'lgan mashinalar yaratishga qaratilgan fan va texnologiya sohasi hisoblanadi.XX asrning o'rtalari va ikkinchi yarmida Sun'iy intellektga asoslangan axborot kommunikatsion texnologiyalari va odamlar o'rtasidagi o'xshash muammolarini ishlab chiqishga aniq va gumanitar fanlar vakillari muhim hissa qo'shdilar. Jumladan, D.Makkarti A. Tyuring J. fon Neymann N.Vinner , J.Searle , E.V Ilenkov va boshqalar. D.Makkarti (John McCarthy) «sun'iy intellekt» atamasini birinchi bo'lib 1956-yilda Dartmut konferensiyasida ilmiy muhitga kiritilgan. U sun'iy intellektni shunday ta'riflagan: «An'anaviy ravishda insonning vakolati deb hisoblangan ijodiy funksiyalarni bajarish uchun aqlli tizimlarning mulki. Olimlarning e'tibori inson va kompyuter tafakkurini solishtirishga qaratilgan, inson ongini takrorlay oladigan va uning ijodiy qobiliyatlariga ega bo'lgan sun'iy ongni yaratish mumkinmi yoki yo'qligini tassavur qilib ko'ring. Alan Tyuring birinchi bo'lib mashina intellekti sohasida keng qamrovli tadqiqotlar olib borgan. Ingliz olimi Alan Metison Tyuring 1950 yilda o'zining «Hisoblash texnologiyasi va intellekt» («Vichislitel'naya texnika i intellekt») 81 asarini nashr etdi . Unda ikkita asosiy nuqtai nazar kuchli va zaif sun'iy intellekt gipotezalari to'g'risida yondashuvlar berilgan. Sun'iy intellekt akademik fan sifatida 1956 yilda hozirda sun'iy intellektning asoschilari hisoblangan Djonon Makkarti, Marvin Minksi, Natanielem Rochester i Klod SHennonlar tomonidan asos solingan. Soha bir necha optimizm davrlarini boshidan kechirdi, so'ngra SI qishi deb nomlanuvchi umidsizlik va mablag'ni yo'qotish davrlari keldi. 2012 yildan keyin, chuqur o'rganish barcha sun'iy intellekt usullaridan oshib ketganidan keyin va 2017 yildan keyin Transformer arxitekturasini paydo bo'lishi bilan moliyalashtirish va qiziqish sezilarli darajada oshdi. 2020-yillarning boshlarida sun'iy intellektning portlashiga olib keldi, aksariyati AQShda joylashgan kompaniyalar, universitetlar va laboratoriyalar sun'iy intellekt sohasida sezilarli yutuqlarga erishdilar. Styuart Rassell va Piter Norvig fikricha, «sun'iy intellekt — bu bilimlarning keng maydoni» dir. Shu bilan birga, Paulus Cerka, Jurgita Grigene va Gintare Sirbikite ta'kidlashicha, sun'iy intellekt bir necha jihatdan aniq yetarli darajada o'rganilmagan hodisadir . Bu hodisa huquqiy va falsafiy nuqtai nazardan eng kam o'rganilgan bo'lib, mahalliy fanda faqat nisbatan kam ish bor .

Sun'iy intellekt bilimlarning dinamik ilmiy tarmog'i bo'lib, uning rivojlanishi asosan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining o'zgarishi bilan belgilanadi. Sun'iy intellekt muammolarining rivojlanish istiqbollari va bu muammolarning o'zi sun'iy intellekt texnologiyasining doimiy ravishda paydo bo'ladigan yangi yutuqlari bilan belgilanadi. Sining inson hayotiga kiritilishi butun jamiyat taraqqiyoti uchun shunchalik muhimki, bu jarayon va uning oqibatlarini tushunish nafaqat falsafa doirasida amalga oshiriladi. Sotsiologlar va psixologlar ham Sining ish o'rinlarining qisqarishiga, ishsizlik darajasini qay darajada oshishiga





qanday ta'sir qilishini, bularning har biri ta'sirida insonning o'zini o'zi qadrlashi, uning shaxsiyati haqidagi g'oyasi va boshqalar qanday o'zgarishini aniq lashlari kerak. SI falsafasini zamonaviy gumanitar tadqiqotlarning muhim va istiqbolli yo'nalishiga aylantiradi.

Su'niy intellektning davlat boshqaruviga ta'siri ,avvalo,davlat boshqaruv shakli tushunchasi oydinlik kiritib olsak,"davlat boshqaruv shakli " davlat hokimiyati va boshqaruvi idoralarining shakllantirilishi va tashkil etilishi tartibi, ularning o'zaro hamda aholi bilan aloqadorligidir.Bu tushuncha orqali mamlakatda kim hukmron va u hokimiyatni qanday boshqaradi,degan savollarga javob olinadi . boshqaruv shakliga qarab davlatlarning monarxiya va respublika shakllari farqlanadi.

Davlatning mohiyatini tushunishda davlat boshqaruvi shakli alohida ahamiyatga ega.Boshqaruv shakli davlat hokimiyatini tashkil etish tartibi va mazmunini anglatadi.Davlat boshqaruv shakli insoniyatni qadimdan qiziqtirib kelgan .Bunda davlatni kim boshqaradi,davlat qanday boshqariladi degan masalalarga va uning boshqarish shakllariga Aflotun ,Arastu,Forobiy,Monsteysko ,Lokk ,Russo va boshqa mutafakkirlar o'z asarlarida alohida e'tibor qaratganlar.

Davlat boshqaruvini tashkil etish yaxlit bir tizim bo'lib, u bir qator xususiyatlarga egadir: 1. Davlat boshqaruvi bu- davlat organlari va muassasalarining yaxlit ierarxik (pog'onaviy) tizimidir. Davlat boshqaruvining yaxlitligi uni tashkil etish va faoliyatining prinsiplari, maqsad va vazifalari umumiyligi orqali ta'minlanadi;

2. Davlat boshqaruvining birlamchi tarkibiy elementlari bo'lib, bular davlat organlari va davlat muassasalari hisoblanadi va ularda maxsus ma'lumotga ega bo'lgan xodimlar – davlat xizmatchilari ishlashadi. Davlat organlari o'zaro bo'ysinish munosabatlari bilan bog'langandir;

3. Davlat boshqaruvi o'z oldiga qo'ygan vazifalarni bajarish uchun zaruriy bo'lgan siyosiy resurslar bilan ta'minlangan;

4. Davlat boshqaruvi orqali bevosita davlat hokimiyati amalga oshiriladi, davlatning vazifa va funksiyalarining bajarilishini ta'minlaydi.

5. Davlat boshqaruvi tushunchasi, uning ijtimoiy-siyosiy mohiyatini ochib berish bo'yicha o'rganilgan ilmiy izlanishlar natijasini umumlashtirib, davlat boshqaruvi tushunchasi bu – davlat hokimiyatini qonuniy tashkil etish usullari majmui bo'lib, insonlarning ijtimoiy hayot faoliyatlariga davlatning amaliy, tashkiliy va tartibga soluvchi ta'siridir

6. Yuridik adabiyotlarning tahlili, davlat xizmati tushunchasiga bir necha ma'nolarda yondashishni taqazo etadi:

Ijtimoiy ma'noda. Davlat xizmati ijtimoiy kategoriya bo'lib davlat tashkilotida ma'lum bir lavozimni egallab turgan shaxs tomonidan davlatning ko'rsatmasiga ko'ra ijtimoiy foydali faoliyatni amalga oshirish;



Siyosiy ma'noda. Davlat xizmati davlat siyosatini amalga oshirishga qaratilgan faoliyat bo'lib, davlatning maqsad va vazifalariga barcha mavjud siyosiy kuch orqali erishadi, jamiyatdagi muvozanatni ta'minlaydi.

Huquqiy ma'noda. Davlat-xizmat munosabatlarini huquqiy o'rnatish bo'lib, bu orqali mansab majburiyatlari, xizmatchilarning vakolatlari, davlat organlarining kompetensiyasi bajarilishi ta'minlanadi. Davlat xizmati murakkab ijtimoiy-huquqiy institutlardan biri bo'lib, uni o'rganish davlat xizmatining ijtimoiy va huquqiy asoslarini tahlil qilishni talab qiladi.

Tashkiliy ma'noda. Davlat xizmati davlat aparatining tashkiliy-funksional elementlari bilan aloqada bo'ladi. U quyidagi elementlardan tashkil topgan tizim sifatida namoyon bo'ladi: davlat aparati, faoliyatining tashkiliy va protsessual asoslarni tashkil etish; lavozimlarning tuzilishi va huquqiy ko'rinishi dir.

Dunyoda ilk bor ,Albaniyada dunyoda birinchi bo'lib sun'iy intellekt vaziriga ega bo'ldi. Bu "sun'iy intellekt bo'yicha vazir "emas, balki piksel va kodlardan iborat, sun'iy intellekt tomonidan boshqariladigan virtual vazifadir . Uning ismi Diella , bu alban tilida "quyosh nuri" degan ma'noni anglatadi. Diella barcha davlat xaridlari uchun mas'ul bo'ladi.

"Diella davlat xizmatlaridan foydalanmoqchi bo'lgan fuqarolar uchun qulaylik (akses-sibiliti) yaratish, hujjatlarni raqamlashtirish va sun'iy intellektni davlat boshqaruviga integratsiya qilish vazifalarini bajaradi."

Albanianing sun'iy intellekt bo'yicha yangi Davlat vaziri Diella — kelajakning aniq, ammo bahsli tasavvurini ifodalaydi.

Shaxslar, bizneslar va hukumatlar kuchaytirilgan raqamli olamning va'dalari va xavflarini o'ylab ko'rayotgan bir paytda, Albaniya — sun'iy intellektga to'liq ravishda tikilmoqda.

Diella allaqachon alban fuqarolariga tanishtirilgan — u mamlakatning e-Albania platformasini boshqaradi. Ushbu platforma fuqarolarga deyarli barcha davlat xizmatlariga raqamli tarzda kirish imkonini beradi. Uning hatto avatori ham bor — an'anaviy alban kiyimida tasvirlangan yosh ayol qiyofasida.

Diella tenderlarni baholaydi va "butun dunyodan iqtidorlarni ishga olish" huquqiga ega bo'ladi, shu bilan birga "ma'muriyatlardagi qat'iylik va kamsitishdan kelib chiqadigan qo'rquvni yo'q qiladi."

Albaniya uzoq yillardan beri, ayniqsa davlat boshqaruvi va davlat xaridlari sohasida, korrupsiya bilan kurashib keladi. Bu masala Yevropa Ittifoqi tomonidan har yili e'lon qilinadigan qonun ustuvorligi bo'yicha hisobotlarda qayta-qayta ta'kidlab kelinadi.

Supervision of Artificial Intelligence) — Ispaniyada sun'iy intellektning etik va xavfsiz foydalanilishini ta'minlash bilan shug'ullanuvchi davlat organidir.



Agentlikning asosiy vazifasi — jamoat va xususiy tashkilotlarning amaldagi qoidalarga rioya qilishini nazorat qilish, shuningdek, shaxsiy hayotga hurmat, teng muomala va asosiy huquqlarni himoya qilishdir.

AESIA mas'uliyatli texnologik rivojlanishni rag'batlantiradi, boshqa organlar bilan hamkorlikda ishlaydi va sun'iy intellektning jamiyat uchun foydali va xavfsiz bo'lishini ta'minlash maqsadida ishonch muhitini yaratadi.

AESIANing vazifa — sun'iy intellekt rivojlanishini nazorat qilish va muvofiqlashtirish orqali uning etik, xavfsiz va doimo jamiyat manfaatlariga xizmat qiladigan tarzda qo'llanilishini ta'minlashdir. Asosiy huquqlarni, jumladan shaxsiy hayotga hurmat va tenglikni himoya qilishga intilish, shuningdek texnologik rivojlanish to'liq mas'uliyat bilan amalga oshirilishini ta'minlaydi. Texnologik taraqqiyotni asosiy qadriyatlarni hurmat qilgan holda rag'batlantiradigan ishonch muhitini yaratishga harakat qiladi, shu bilan birga inklyuziv va adolatli muhitni rivojlantiradi. Sun'iy intellektni mas'uliyatli tarzda innovatsiyalarni ilgari suradigan vosita sifatida ishlashini ta'minlash, ijtimoiy farovonlikni rag'batlantirish va barqaror texnologik kelajakni qurish ustida ishlaydi.

AESIAda qadriyatlar har bir harakatlarga yo'l ko'rsatadi: etik me'yorlar, innovatsiya va oshkorlik. Biz sun'iy intellektning adolatli va xavfsiz tarzda ishlab chiqilishi va qo'llanilishini, doimo asosiy huquqlar hurmat qilinishini ta'minlaydi.

Robot texnologiyalarining tez sur'atlarda rivojlanishi va XX asrning ikkinchi yarmida hisoblash quvvatining oshishi natijasida sun'iy intellekt (AI) asosidagi tizimlar va robotlarga topshirilishi mumkin bo'lgan vazifalar ko'lami keskin kengaydi.

Bu jarayon global taraqqiyot va ijtimoiy o'zgarishlar uchun foydali bo'lishi mumkin — masalan, BMTning Barqaror taraqqiyot maqsadlariga erishishga hissa qo'shadi. Biroq bu bilan birga inson farovonligi, xavfsizligi va jamiyat uchun xavf tug'dirishi mumkin bo'lgan huquqiy, axloqiy va ijtimoiy muammolarni ham yuzaga chiqaradi.

UNICRI dasturi:

2015-yilda UNICRI sun'iy intellekt va robototexnika bo'yicha dasturini ishga tushirdi. Ushbu soha ekspertlarining bilim va tajribasidan foydalangan holda siyosatchilar va manfaatdor tomonlarni xabardor qilish maqsad qilingan. UNICRI sun'iy intellektni boshqarish masalasida xalqaro darajada muhokamalarni rivojlantirish mumkinligiga ishonadi. Turli manfaatdor tomonlar — davlat, xususiy sektor, mintaqaviy va xalqaro tashkilotlar o'rtasida nazariy va amaliy jihatdan muvozanatli yondashuv asosida kelishuvga erishish muhim o'rin tutadi.

Markazning ochilishi

2016-yil 29-sentyabr, BMT Bosh Assambleyasining 71-sessiyasi davomida UNICRI direktori Sindy J. Smit sun'iy intellekt va robototexnika bo'yicha BMT tizimidagi ilk Markaz ochilayotganini e'lon qildi. U shunday dedi: "Markazning maqsadi — sun'iy intellekt va robototexnikaning xavf va foyda dualizmini chuqurroq



tushunishga yordam berish, koordinatsiyani yaxshilash, bilim almashish, xabardorlik va hamkorlikni kuchaytirishdir. Markazi Gaaga shahrida ochildi.”

Niderlandiya hukumati va Gaaga shahri ko‘magida tashkil etilgan Markaz sun‘iy intellekt va robototexnika masalalari bo‘yicha xalqaro resurs markazi sifatida ishlaydi.

Natijalar tahlili

Yuqorida ko‘rib turganimizdek dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan davlatlari tajribasidan shuni xulosa qilish mumkinki:

Albaniya — Diella (AI vakili / “AI vazir”)

Afzallik jihatlari :

1. Korrupsiyani kamaytirish maqsadi,

Diella davlat xaridlari (tenderlar)ni “inson” tarkibiy qismini kamaytirib, shaffoflikni oshirish uchun ishlaydi. Reutersga ko‘ra, uning tayinlanishi korrupsiya xavfini pasaytirishga yo‘naltirilgan.

2. Ma‘muriy jarayonlarni tezlashtirish,

Virtual vazir sifatida Diella e-Albaniya platformasida ishlaydi va fuqarolarga hujjatlar bilan ishlashda yordam beradi — bu byurokratik kechikishlarni kamaytirishi mumkin.

3. Innovatsiya va global e‘tibor,

Dunyoda birinchi “AI vaziri” bo‘lishi Albaniyaga innovatsion imidj beradi va raqamli boshqaruvda ilgari surilishi mumkin.

4. Obyektiv baholash

4.AI bazasida takliflar baholanishi — inson tarafkashligi va shaxsiy manfaatlarni kamaytirishi mumkin.

Ispaniya — AESIA (Sun‘iy Intellektni Nazorat qilish Agentligi)

Afzallik jihatlari:

1. Etik va xavfsiz AI nazorati

AESIA sun‘iy intellektni etika, shaffoflik va inson huquqlariga hurmat bilan nazorat qilishga qaratilgan.

2. Yevropa regulyatsiyasi bilan mos kelishi

AESIA AI qonunlarini (masalan, AI Act) nazorat qiladi va uy-yurt kompaniyalariga bu regulyatsiyalarga muvofiq ishlashda yo‘l-yo‘riq beradi.

3. Jamoatchilik bilan aloqalar va shikoyat mexanizmi

AESIA veb-sahifasi orqali fuqarolar o‘z shubhalari, xatarlar yoki buzilishlar haqida xabar bera oladi — bu oshkoralikni oshiradi.

4. AI savodxonligi va ta‘lim

AESIA tomonidan aholiga AI haqida bilim beradi, ta‘lim dasturlari tashkil qiladi. Bu AI madaniyatini oshirishga yordam beradi.

5. Bozor nazorati va jarimalar

AI qonunlari buzilganda AESIA inspeksiya va penal choralari qo‘llashi mumkin.

BMT / Xalqaro — UNICRI Sun‘iy Intellekt va Robototexnika Markazi





Afzallik jihatlari:

1. Xavf va foyda muvozanati

UNICRI Markazi AI va robototexnikaning ijobiy va salbiy tomonlarini o'rganadi, jinoyatchilik, terrorizm, xavfsizlik nuqtai nazaridan xatarlarni baholaydi.

2. Xalqaro hamkorlik

Markaz turli davlatlar va tashkilotlar (INTERPOL, ITU, IEEE va boshqalar) bilan ishlaydi, bu global miqyosda AI boshqaruvi bo'yicha bilim almashinuvini kuchaytiradi.

3. Siyosat ta'sirchanligi

Policy-makerlar uchun seminarlar, ilmiy yig'ilishlar va ma'lumot tarqatish orqali UNICRI qaror qabul qilishda mas'ul tomonlar ongini oshirishga hissa qo'shadi.

4. Xabardorlik va ta'lim

UNICRI treninglar va murabbiylik dasturlari orqali AI xavflari va etikani yetkazadi, bu yangi avlod siyosatchilari va mutaxassislarini tayyorlashda yordam beradi.

Shuningdek, O'zbekistonda ham Ispaniya tajribasidan kelib chiqib, AESIANi joriy etish va buni amalga kiritsak, undan kutilayotgan natijalar

1. AI tizimlarda shaxsiy ma'lumotlardan foydalanishni yaxshi nazorat qilish,

2. AI haqida fuqarolarga bilim beradi va undan xavfsiz foydalanish yo'l-yo'riqlarini batafsil tushuntirib o'tadi. Ta'lim dasturlari tashkil qiladi. Bu AI madaniyatini oshirishga yordam beradi.

3. AI qonunlari buzilganda AESIA inspeksiya va penal choralari qo'llashi mumkin.

4. AESIA veb-sahifasi orqali fuqarolarga xatolari, xatarlar yoki buzilishlar haqida xabar bera oladi

.Shu o'rinda uning kamchiliklarini hisobga olgan holda joriy etish va uni yanada takomillashtirish chora – tadbirlarini ishlab chiqish, uni amaliyotga qo'llash yo'llarini va dasturini ishlab chiqish, kelajakda sun'iy intellekt keladigan xavf – xatarni oldini olgan bo'lardik.

Shu o'rinda AIning bir qator kamchilik jihatlari:

AI yordamida mashhur siyosiy shaxslarning soxta nutqlari, uylab topilgan bayonotlari, montaj qilingan videolari yasaliishini juda osonlashtiradi. Bu davlat rahbariga tuhmat bo'lishi, obro'siga putur yetkazish, ichki va tashqi siyosatda muammolar keltirib chiqarishi mumkin. Bundan tashqari Shaxsiylik va maxfiylik xavfi AI o'rganish jarayonida foydalanuvchi ma'lumotlari (matn, rasm, ovoz) ishlatiladi. Agarda ma'lumotlar himoyalansa, ularni xakkerlar noqonuniy ishlatilishi mumkin.

XULOSA

Xulosa o'rnida shuni atish mumkinki, sun'iy intellekt raqamli hukumat konsepsiyasini rivojlantirishda muhim o'rin tutadi. Aqlli chat-botlar, ma'lumotlarni tahlil qilish tizimlari va avtomatlashtirilgan boshqaruv modullari aholiga tez, qulay va shaffof xizmat ko'rsatish imkonini bermogda.





SI va raqamli iqtisodiyotning uyg'unlashuvi iqtisodiy modelni tubdan o'zgartiradi. Kelgusida aqlli shaharlar, avtonom transport vositalari, raqamli sog'liqni saqlash tizimlari kabi konsepsiyalar keng joriy etiladi. Bularning barchasi inson hayotini yanada qulay, xavfsiz va samarali qilishga qaratilgan.

Sun'iy intellekt raqamli iqtisodiyotning nafaqat qudratli quroli, balki uning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun zaruriy sharti hamdir. Transformatsiya yo'llari turli sohalarda turlicha bo'lishi mumkin, ammo ularning barchasini yagona maqsad birlashtiradi: inson hayotini yaxshilash va iqtisodiyotni barqaror rivojlantirish.

Albaniya va Ispaniya tajribasi shuni ko'rsatadiki, sun'iy intellekt davlat boshqaruvida samarali vosita bo'lishi mumkin. Albaniyada AI tenderlar jarayonini nazorat qilish orqali korrupsiyani kamaytirishga intilsa, Ispaniyada AESIA tashkiloti etik va qonuniy me'yorlar doirasida AI rivojlanishini boshqaradi. UNICRI esa AI va robototexnika sohasida xalqaro tajriba va maslahatlarni yetkazish orqali xavf va foydalarni baholash imkonini beradi. Shu bilan birga, AI tizimlarida shaffoflik, axborot xavfsizligi, malakali kadrlar yetishmasligi va ijtimoiy-iqtisodiy ta'sirlar kabi kamchiliklar mavjud.

O'zbekiston uchun esa AI davlat boshqaruvida innovatsion vosita sifatida joriy qilinishi mumkin, biroq bu jarayon shaffof qonunchilik, xavfsiz infratuzilma, malakali mutaxassislar tayyorlash va xalqaro tajriba almashish bilan birga amalga oshirilishi lozim. Bosqichma-bosqich sinov loyihalari, ochiq ma'lumotlar va algoritmlarni nazorat qilish mexanizmlari orqali Aldan foydalanish samarali va xavfsiz bo'ladi. Shu tarzda O'zbekiston davlat xizmatlarida, tender va moliya tizimlarida AIni joriy etib, korrupsiyani kamaytirish va xizmat sifatini oshirish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Sun'iy intellekt shu darajada tez ommashdiki, hayotimizni usiz tasavvur qilish qiyin bo'lib qoldi. U har sohaga ,yo'nalishga tez sur'atlarda kirib o'mashib bormoqda. Vaqt o'tgan sayin insonlar sun'iy intellektga suyanib ish ko'rishlari odatiy holga aylandi. Hattoki odatiy hayotiy masalalarda ham undan maslahat olib ish tutishlarini ko'rishimiz mumkin. Albatta, barcha yaratilgan ixtirolar, kashfiyotlar insonni hayotini yengillashtirish va uning foydasiga ishlash uchun yaratilgandir. Ammo tanganing ikki tomoni hisobga olib sun'iy intellektda foydalanishda xavf-xatar va muammolar uchrab turadi. Hozirgi kunda sun'iy intellektidan foydalanilayotgan barcha insonlarga vatandoshlarga shuni murojaat qilish mumkinki, sun'iy intellektidan foydalanayotganda e'tiborli bo'lishni va uning xavf- xatarlari butkul oldi olinmaganligini hisobga olgan holda foydalanishni tavsiya qilamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-uning-insoniyat-faoliyatida-tutgan-o-rni/viewer>





2. https://iaais.uz/storage/files/1/Navigating_the_Social_Impact_of_Artificial_Intelligence_FINAL%203.pdf
3. https://www.researchgate.net/publication/392870141_SUNIY_INTELLEKT_TU_SHUNCHASI_VA_UNING_FALSAFIY_TAHLILI_file:///C:/Users/user/Downloads/A.A.Yoldoshev-xalqaromaqola2024.pdf
4. <https://aesia.digital.gob.es/en/es>
5. <https://bestpublication.net/index.php/MASTERS/article/view/3219>
6. <https://cyberleninka.ru/article/n/sun-iy-intellekt-va-uning-insoniyat-faoliyatida-tutgan-o-rni/viewer>
7. Odilqoriyev, B (2009). Davlat va huquq nazariyasi. Toshkent: "Sharq" nashriyoti
8. "Albaniya sun'iy intellekt modelini yaratdi va uni 'vazir' etib tayinladi" (2025) YUZ.UZ, 12 September. Available at: <https://yuz.uz/uz/news/albaniya-suniy-intellekt-modelini-yaratdi-va-uni-vazir-etib-tayinladi> (Accessed: 19 November 2025).
9. Kun.uz (2025) "Albaniya parlamentida sun'iy intellekt vaziri nutq qildi", 18 September. Available at: <https://www.kun.uz/news/2025/09/18/albaniya-parlamentida-birinchi-suniy-intellekt-vazir-nutq-qildi> (Accessed: 19 November 2025).
10. Hogenhout, L. (2021) A Framework for Ethical AI at the United Nations. arXiv. Available at: <https://arxiv.org/abs/2104.12547> (Accessed: 19 November 2025).
2. Marwala, T. (2024) Framework for the Governance of Artificial Intelligence. United Nations University, 19 April. Available at: 11. <https://unu.edu/publication/framework-governance-artificial-intelligence> (Accessed: 19 November 2025).
3. Kiden, S., Stahl, B., Townsend, B., Maple, C., Vincent, C., Sampson, F., Gilbert, G., Smith, H., Deshmukh, J., Ross, J., Williams, J., del Rincon, J. M., Lisinska, J., O'Shea, K., da Costa Abreu, M., Bencomo, N., Deb, O., Winter, P., Li, P., Torr, P., Lau, P. L., Iniesta, R. & Yazdanpanah, V. (2024) Responsible AI Governance: A Response to UN Interim Report on Governing AI for Humanity. arXiv. Available at: 12. <https://arxiv.org/abs/2412.12108> (Accessed: 19 November 2025).
4. Zhong, H., Do, T., Jie, Y., Neuwirth, R. J. & Shen, H. (2025) Global AI Governance: Where the Challenge is the Solution — An Interdisciplinary, Multilateral, and Vertically Coordinated Approach. arXiv. Available at: 13. <https://arxiv.org/abs/2503.04766> (Accessed: 19 November 2025).
5. Gosselink, B. H., Brandt, K., Croak, M., DeSalvo, K., Gomes, B., Ibrahim, L., Johnson, M., Matias, Y., Porat, R., Walker, K. & Manyika, J. (2024) AI in Action: Accelerating Progress Towards the Sustainable Development Goals. arXiv. Available at: <https://arxiv.org/abs/2407.02711> (Accessed: 19 November 2025).

